

POMIDORNING TUPROQ OSTI ZARARKUNANDALARI TUR TARKIBI, UCHRASH DARAJASI VA ULARNING BIOEKOLOGIYASI

Muminova Ra'no Dalabayevna

qishloq xo'jaligi falsafa fanlari doktori, professor,
ORCID ID: 0009-0002-7256-1942

Usmonova Shaxnoza Iloxomjon qizi, magistr,

Orcid ID: 0009-0004-8521-1225
Toshkent davlat agrar universiteti.

Annotatsiya. Maqolada tadqiqotlar natijalariga ko'ra pomidor o'simligida 4 turkumga oid 16 tur tuproq osti zararkunandalari uchrashi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: pomidor, yer osti zararkunandalari, tur tarkib, zarar, iqtisodiy zarar keltirish miqdor mezon.

Аннотация. В статье по результатам исследований в растении томата обнаружено 16 видов подземных вредителей, относящихся к 4 отрядам.

Ключевые слова: томат, подземные вредители, видовой состав, ущерб, количественный критерий экономического ущерба.

Abstract. In the article, based on the results of research, 16 species of underground pests belonging to 4 orders were found in the tomato plant.

Key words: tomato, underground pests, species composition, damage, quantitative criterion of economic damage.

Kirish. Sabzavot ekinlari agrobiotsenozi ko'pchilik turdagi zararkunandalarning oziqlanish joyi hisoblanadi. Bu agrobiotsenozda ekinlarning zich ekilishi natijasida turli xil zararkunandalar yashashi uchun qulay mikroiklim hosil bo'lsa va ayrimlarining gullari o'zida ko'p miqdorda nektar yig'ishi bilan zararli va foydali hasharotlarni jalb qiladi. Buning oqibatida sabzavot ekinlariga zararkunandalar keltiradigan zarar miqdori oshib ketadi [3]. Sabzavot ekinlaridan olinadigan hosilni zararkunandalardan ekologik xavfsiz usulda himoya qilish va ularning tabiiy kushandalarini populyatsiyasi sonini saqlash hamda ko'paytirish tadbirlarini ishlab chiqish uchun ularning tur tarkibini va bioekologik xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga ega [2].

Shularni hisobga olgan holda biz pomidorda uchraydigan yer osti zararkunandalarni turlarini o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Materiallar va uslublar. Tadqiqot o'tkazilgan yil davomida ToshDAUning ilmiy tadqiqot stansiyasi tajriba maydonlarida, Toshkent viloyatining Qibray, Zangiota (Toshkent) tumanlarida pomidor o'simligi yer osti zararkunandalari tur tarkibini aniqlash uchun namunalar yig'ildi. Sabzavot ekinlarining tuproq ostki

zararkunandalari va entomofaglarining tur tarkibini aniqlash, tarqalishi, zararliligini hisoblash va namunalar yig'ishda I.Ya.Polyakov, K.E.Voronin, B.P.Adashkevich, E.S.Shiyko, G.S.Posippanov, V.I.Tanskiy, G.Ya.Bey-Bienko uslublaridan foydalanildi. Bunda tuproq osti zararkunandalarning namunalarini yig'ish, yorug'liq tutqichlar asosida, tuproqning 20 sm gacha bo'lgan qalinlikdagi qismidan namunalar olish kabi bosiqichlarda amalga oshirildi. Keltirilgan namunalar (zararkunanda) laboratoriya sharoitida yetuk zotlik holigacha boqildi. Yetuk hasharotlar esa turli fiksatorlarda fiksatsiya qilinib, aniqlagichlar yordamida tur nomlari tekshirib ko'rildi. Kuzatuv va izlanishlar natijalari qayd etib borildi.

Natijalar va munozara. Barcha yig'ilgan hasharot turlari sistematik tahlil asosida turlarga ajratilib, turli manbalar asosida ularning turlari aniqlandi. Unga ko'ra 4 turkumga oid 16 tur tuproq osti zararkunandalari aniqlandi.

Jadvalda keltirilgan muammolardan ko'rinib turibdiki, pomidor o'simligida zararkunandalarning tur tarkibini qayta tadqiq etib, ularni bioekologiyasini o'rgangan holda yuqori samarali kurash usullarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

1-jadval

Pomidor ekinining asosiy tuproq ostki zararkunandalari
(Toshkent viloyati, Toshkent tumanida joylashgan Sabzavot, poliz va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti 2024 y.)

№	Tip, sinf, turkum, oila va turlar nomi		Uchrashi
	O'zbekcha	Lotincha	
	Hasharotlar sinfi - <i>Insecta</i> Tangaqanotlilar turkumi - <i>Lepidoptera</i>		
	Tunlamlar oilasi	<i>Noctuidae</i>	
1.	Yovvoyi tunlam,	<i>Euxoa conspisua</i> Hb.	+
2.	Kuzgi tunlam	<i>Agrotis segetum</i> Den. et Schiff.	+++

Qattiqqanotlilar turkumi – Coleoptera			
3.	Chertmakchilar oilasi	Elateridae	
4.	Qora qarsildoq qo'ng'iz	<i>Agriotes obscurus</i> L.	++
5.	Keng tanali qarsildoq qo'ng'izlar	<i>Selatosomus latus</i> F.	+
	Mo'ylovdor qo'ng'izsimon chertmakchisi	<i>Clon cerambycinus</i> Sem.	+
6.	Burundor qora qo'g'izi	<i>Dailognatha nasute</i> Men.	+
7.	Cho'l sekin yurar qo'ng'izi	<i>Beaps halophiea</i> F.W.	+
8.	Turkiston chertmakchisi	<i>Agriotes meticolus</i> Cond.	++
9.	Qoratanli qo'ng'izlar oilasi	Tenebrionidae	
10.	Qumloq qoratanli qo'ng'izi	<i>Opatrum sabulosum</i> L.	+
11.	Cho'l qoratanli qo'ng'izi va	<i>Blaps halophila</i> Fisch.	+
	Jo'xori qoratanli qo'ng'izi	<i>Pedinus femoralis</i> L.	+
12.	Buzoqbosh (xrush) qo'ng'izlar oilasi	Scarabidae.	
13.	Mart buzoq boshi	<i>Melonotha afficta</i> Ball.	++
	May buzoq boshi	<i>Melolontha melolonta</i> M.	++
14.	Zararli buzoq boshi	Hypocastani. <i>Polyphilla adspersa</i> Motsch.	++
To'g'ri qanotlilar turkumi – Orthoptera			
15.	Quyruqli buzoqboshilar oilasi	Gryllotalpidae	
	Quyruqli buzoqbosh	<i>Gryllotalpa paunispina</i> Sauss.	+
Yumaloq chuvalchanglar sinfi			
Telenxidlar turkumi – Telenchidea			
16.	Geteroderidlar oilasi	Heteroderidae	
	Shish hosil qiluvchi nematoda	<i>Heterodera marioni</i> Cornu.	+++

Xulosa. Toshkent viloyati sharoitida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra pomidor o'simligida 4 turkumga oid 16 tur tuproq osti zararkunandalari qayd etildi.

ADABIYOTLAR:

1. Ortiqov U.D. Issiqxona sabzavot ekinlari zararkunandalari va ularga qarshi biologik kurash usullari. Diss. avtoref. - Toshkent, 2007. -22 b.
2. Рашидов М.И. Интегрированная защита послепосевных овощных культур от вредителей. Монография. –Ташкент, 2008. –С.22.
3. Xudoyqulov A.M, Qalandarova M.M, Sayimov, N.Q. Qoratanli va qarsildoq qo'ng'izlar bioekologiyasi va ularga qarshi samarali kurash choralari. T. Agrar fani xabarnomasi. 2017 y. №4. 67-70 b.
4. Xudoyqulov A.M. Ildiz kemiruvchi kuzgi va undov tunlamlariga qarshi samarali kurash tadbirlari. T. Agroilim. 2016 y. Maxsus son. 62-63 b.